UDK: 614.4(575.37)

Qobilov Nodir Nuriddinovich - assistent
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

SAMARQAND VILOYATIGA COVID-19 NING KIRIB KELISHINING EPIDEMIOLOGIK AXAMIYATI

Annotatsiyasi; *Aholi o‘rtasida istalgan yuqumli kasallikning ommaviy tarqalishi uning vujudga kelishini rivojlanishini belgilovchi shart-sharoitlarga hamda tarqalganlikning jadalligi, tarkibi, dinamikasiga ko‘ra tavsiflanadi. Mazkur ko‘rinishlarni kuzatish, qayd etish orqali kasallik paydo bo‘lishi va tarqalishining sabablariga doir dastlabki farazlar shakllantiriladi. Tarqalganlik ko‘rinishlarini tavsiflovchi turli ko‘rsatkichlarni taqqoslash va tahlil etish shakllantirilgan farazlarni tekshirish - tasdiqlash yoki rad etish borasida xulosa chiqarish imkonini beradi. COVID-19 tarqalishining determinantlari, ya’ni mazkur kasallikning chetdan kirib kelishi biron hududda paydo bo‘lishi va tarqalishining sabablari to‘g‘risidagi muayyan tasavvur shakllantirilgach, albatta sog‘liqni saqlash tizimidagi mavjud infratuzilma va imkoniyatlardan kelib chiqib, kasallikning xos tashxisotini, davolash-profilaktika tadbirlarini tashkillashtirish, amalga oshirish bo‘yicha qaror qabul qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *COVID-19, epidemiologiya, profilaktika, karantin-cheklov.*

Кабилов Нодир Нуриддинович - ассистент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

ЭПИДЕМИОЛОГИЯ ЗАНОСА COVID-19 В САМАРКАНДСКУЮ ОБЛАСТЬ

Аннотация; *Массовое распространение любой инфекционной болезни среди населения характеризуется условиями, определяющими ее возникновение и развитие, а также интенсивностью, составом и динамикой ее распространения. Наблюдая и фиксируя эти проявления, формируются первоначальные гипотезы о причинах возникновения и распространения заболевания. Сравнение и анализ различных показателей, описывающих закономерности распределения, позволяет сделать выводы о проверке — подтверждении или опровержении сформулированных гипотез. После формирования четкой картины о детерминантах распространения COVID-19, то есть причинах завоза этого заболевания из-за рубежа, его возникновения и распространения на конкретной территории, будет принято решение об организации и проведении конкретных диагностических, лечебно-профилактических мероприятий по данному заболеванию, исходя из имеющейся инфраструктуры и возможностей системы здравоохранения.*

Ключевые слова; *COVID-19, эпидемиология, профилактика, карантин-ограничение.*

Kobilov Nodir Nuriddinovich - intern assistant,
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

EPIDEMIOLOGY OF THE ENTRY OF COVID-19 INTO THE SAMARKAND REGION

Annotation; *The mass spread of any infectious disease among the population is characterized by the conditions that determine its occurrence and development, as well as the intensity, composition, and dynamics of its spread. By observing and recording these manifestations, initial hypotheses are formed about the causes of the occurrence and spread of the disease. Comparison and analysis of various indicators characterizing the manifestations of the spread allow us to draw conclusions about the verification - confirmation or rejection of the formed hypotheses. After a certain idea is formed about the determinants of the spread of COVID-19, that is, the reasons for the emergence and spread of this disease from abroad in a particular region, a decision is made to organize and implement specific diagnostics of the disease, treatment and preventive measures, based on the existing infrastructure and capabilities of the healthcare system.*

Key words; *COVID-19, epidemiology, prevention, quarantine-restriction.*

Muammoning dolzarbligi. Samarqand viloyatiga Covid-19 ning kirib kelishining epidemilogik axamiyatini o’rganish natijalariga ko‘ra, viloyatda mazkur kasallik bilan kasallanishning dastlabki holatlari 2020 yil aprel oyining birinchi o‘n kunligida Samarqand shahri va Tayloq tumanining xorijiy davlatlardan qaytarilayotgan fuqarolari o‘rtasida “ekzotik” tabiatga ega - tashqaridan kirib keluvchi kasallik sifatida kuzatila boshlandi va kasallik qayd etilishi aholi o‘rtasida shu yilning dekabr oyiga qadar davom etdi. Epidemik davrda, ya’ni 2020 yilning aprel-dekabr oylari mobaynida viloyatda jami 2500 nafardan oshiq shaxslarda COVID-19 tashxisi qayd etilgan.

Tadqiqot materiali va usullar. COVID-19 bilan kasallanish dinamikasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, aprel oyida (45 holat) jami kasallanish holatlarining 1,8 % ni qayd etgan, may oyida (280 holat) kasallanishning keskin - aprel oyiga qaraganda 6,2 marta o‘sishi kuzatildi. Iyun oyida (178 holat) kasallanishning birmuncha – may oyiga nisbatan 1,57

marta pasayishi qayd etildi. Lekin iyul oyida kasallikning qaytadan keskin ko‘tarilishi, ya’ni iyun oyiga nisbatan 3,39 marta o‘sishi kuzatildi va 604 holatni tashkil etdi, bu aprel oyiga qaraganda 13,42 marta yuqori ko‘rsatkichdir. Kasallanishning yuqori ko‘rsatkichlari avgust (670 holat) va sentabr (550 holat) oylarida ham barqaror saqlanib qoldi. Epidemik davr mobaynida qayd etilgan jami kasallanish holatlarining (2327 holat) mutloq aksariyat qismi (1824 holat) aynan iyul-sentabr oylari mobaynida qayd etildi.

Karantin-cheklov tadbirlarining kasallanish jadalligiga ta’sirini atroflicha baholash uchun COVID-19 holatlari har oyning 5 kunliklari kesimida tahlil etildi. O‘zbekistonda COVID-19 ning dastlabki holati qayd etilishi (15-mart 2020 yil) bilanoq ommaviy tadbirlar o‘tkazilishi, chet davlatlar bilan aviaqatnovlar (16-mart 2020 y.), temir yo‘l qatnovlari (19-mart 2020 y.) to‘xtatildi va tezda cheklovlar ko‘lami kengaytirilib birinchi qat’iy karantin (30-mart 2020 y. - 8-may 2020 y.) o‘rnatildi. Mazkur tadbirlarning samarasi o‘laroq, Samarqand viloyatida kasallanishning birinchi to‘lqinini may oyi oxirida – salkam ikki oy ichida bartaraf etishga muvaffaq bo‘lindi. Viloyatda iyun oyining dastlabki ikki 5 kunligida COVID-19 bilan kasallanish holatlari umuman qayd etilmadi. Iyun oyining dastlabki 10 kunligida COVID-19 epidemik jarayoni zanjirining uzilishi, bevosita qat’iy karantin choralarining ijobiy ta’siri sifatida baholanishi mumkin. Lekin iyun oyining uchinchi 5 kunligidan boshlab, ya’ni karantin tadbirlari yumshatilganidan keyin oradan bir oy o‘tgach, viloyatda COVID-19 bilan kasallanish qaytadan- kasallanishning ikkinchi to‘lqini sifatida kuzatila boshladi, iyul oyining ikkinchi o‘n kunligida kasallanishning eng yuqori darajasi qayd etildi va umuman olganda, bu holat respublikaning aksariyat hududlarida kuzatilayotgan epidemik vaziyatga monand holat edi. Shu boisdan respublikada 10-iyuldan 11-avgustga qadar ikkinchi qat’iy karantin joriy etildi. Shunga qaramasdan Samarqand viloyatida COVID-19 bilan kasallanishning ikkinchi to‘lqini iyun oyining 3 besh kunligidan to oktabr oyining 4 besh kunligiga qadar – roppa-rosa to‘rt oy davom etdi. O‘tkazilgan tahlillar, karantin-cheklov tadbirlari COVID-19 epidemik jarayonini boshqarish borasida samarali, lekin nisbiy ta’sir etish imkoniyatiga ega ekanligini, ya’ni mazkur tadbirlar majmuasi yumshatilishi yoki to‘xtatilishi bilan kasallanishning qayta o‘sa boshlashini ko‘rsatadi. Kasallik tarqalishining (umuman olganda, to‘g‘rirog‘i, epidemik jarayonning) bunday ko‘rinishda namoyon bo‘lishi havo-tomchi mexanizm bilan yuquvchi ekzotik kasalliklar, jumladan COVID-19 uchun tabiiy holdir. COVID-19 bilan kasallanishning birinchi to‘lqiniga nisbatan ikkinchi to‘lqinining yuqori jadallikda va ikki martadan ko‘proq uzoq muddat davom etishi, chetdan kasallik kirib kelgach vaqt o‘tgani sayin aholi o‘rtasida infeksiya manbalari soni oshishi va nozoareal kengayishi bilan izohlanadi. Qisman bu holatga, navbatdagi karantin-cheklov talablariga aholi rioya etish darajasining pasayishi – aholining karantin-cheklov tadbirlaridan “charchashi” ham sabab bo‘lishi mumkin.

Natija va muxokama. Ishonchlilik darajasini oydinlashtirish maqsadida, olingan ma’lumotlar tahlil etildi. Mazkur tahlil “shaharlar” aholisining COVID-19 bilan kasallanish nisbiy xavfi “shahar oldi tumanlari” aholisiga qaraganda 1,9 marta (RR=1,9), yuqori ekanligini ko‘rsatadi Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar COVID-19 tarqalishi uchun shaharlar “xavfli hudud” ga, kasallanish darajasiga ko‘ra shaharlar va shahar oldi tumanlar aholisi esa “xavf guruhi” ga mansub ekanligidan dalolat beradi. Kasallik tarqalishi (epidemik jarayoni) jadalligidagi mazkur tafovut, avvalo, shaharlar va tumanlarda aholi zichligining turlicha ekanligi, xususan, shaharlarda aholi zichligi yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu holatda, tabiiyki, aholi zichligiga nafaqat shahardagi muqim ro‘yxatda turuvchi kishilar, balki yondosh hududlardan ish, ta’lim, tijorat, tibbiy xizmatdan foydalanish, maishiy yumushlar va boshqa ko‘plab faoliyatlar zaruriyatlar yuzasidan shaharlarga muntazam tashrif etuvchilar – shahar aholisi sonining “mayatniksimon tebranishi” ga ta’sir etuvchi ko‘plab omillar ham mavjud va mazkur omillar e’tibordan chetda qoldirilmasligi zarur. Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, “ekzotik”, ya’ni tashqaridan kirib keluvchi barcha yuqumli kasalliklar uchun, aksariyat hollarda, dastlab ma’muriy markazlarga keltirilish va ushbu joydan markazdan uzoqlashuvchi - radial tarzda atrof hududlarga tarqalish xos ekanligi inobatga olinishi joiz. COVID-19 “ekzotik” yuqumli kasallik sifatida, dastlab aynan ma’muriy markaz – Samarqand shahrida va yondosh Tayloq tumanida qayd etildi, ushbu hududlardan atrof hududlarga markazdan uzoqlashuvchi - radial tarzda tarqalganligi kuzatildi. Shaharda ma’muriy, ijtimoiy, ishlab chiqarish, ta’lim, tijorat, sog‘liqni saqlash va boshqa ko‘plab ob’ektlarning konsentratsiyalashuvi aholi zichligiga ta’sir etish barobarida, mazkur ob’ektlarga tumanlardan murojaat etuvchilar (yoki ularda tumanlardan qatnab faoliyat yurituvchilar) orqali kasallikning viloyat bo‘ylab yoyilishiga ham xizmat qilgan.

Bu o‘rinda, tadqiqot ishtirokchilarining barchasi statsionar sharoitlarda davolanganliklarini, bemorlarning shifoxona sharoitida davolanishlari esa aksariyat hollarda kasallikning klinik alomatlari yuzaga chiqishi (manifestatsiya) va og‘irlik darajasi bilan belgilanishini e’tiborga olish joiz. Ya’ni, keltirilgan kasallanish ko‘rsatkichlari nafaqat epidemik jarayon jadalligini, balki bilvosita kasallikning og‘irlik darajasini ham aks ettirishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, 14 yoshgacha bolalarda kasallanish ko‘rsatkichining o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan ishonarli tarzdagi past ko‘rsatkichlari, 2020 yilda COVID-19 bilan kasallanishning dunyo miqyosida kuzatilgan yosh kon’yunkturasidagi umumiy tendensiyaga monand va, avvalo, organizmning dastlabki (infeksiya yuqquniga qadar) holati hamda kasallikning patogenetik mexanizmi bilan izohlanishi mumkin. 15 yoshdan yuqori yosh guruhlarining kasallanishidagi tafovutlar, avvalo, muayyan yosh guruhidagilarning ijtimoiy faolliklaridagi tafovutga mutanosib ravishda namoyon bo‘ldi. Tahlil natijasida 15-49 yosh oralig‘idagi guruhlar a’zolari kasallik yuqishi nuqtai nazaridan xavf guruhiga mansub

ekanligi aniqlandi. 50 yoshdan yuqori guruhlar a'zolarida, garchi kasallik manifestatsiyasiga va klinik og'irlashuviga olib keluvchi yoshga bog'liq holatlar chastotasi ko'proq kuzatilsada, joriy etilgan karantin-cheklov tadbirlari tufayli, ular tomonidan ijtimoiy faollik susayib, muloqotlar chastotasi kamayganligi bois, aholi o'rtasidagi o'rtacha ko'rsatkichga qaraganda mazkur guruhlar vakillarida kasallanish ko'rsatkichi ishonarli tarzda past qayd etildi. Bu holat, tavsiya etilayotgan ijtimoiy masofani saqlash, niqob taqilishi, izolyatsiya kabi karantin-cheklov tadbirlarining samarali ekanligini isbotlaydi.

Aynan bir yosh guruhiga mansub shaxslar o'rtasidagi epidemik jarayon jadalligidagi tafovut sabablarini aniqlash uchun, aholining turli ijtimoiy guruhlarida kasallanish darajasini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-kasbiy guruhlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, COVID-19 bilan kasallanishning eng past ko'rsatkichi maktabgacha yoshdagi bolalar guruhida (har 100000 nafarga 11,5±3,4) qayd etilgan.

Bu ko'rsatkich aholining umumiy o'rtacha kasallanish ko'rsatkichiga (62,9) qaraganda 5,5 marta, ya'ni ishonarli darajada past (r<0,05). Shu bilan birga ta'kidlash joizki, mazkur guruhdagi uyushgan jamoalarga mansub bolalarning kasallanishi (17,5±2,5), uyushmagan bolalar kasallanishiga (6,8±1,4) qaraganda 2,6 marta yuqori (r<0,05). Aholining o'rtacha kasallanishiga qaraganda, uyushgan jamoalardagi bolalarning kasallanishi 3,6 marta kam bo'lsa, uyushmagan bolalarning kasallanishi 9,3 marta kamroqdir.

Aynan bitta yosh guruhidagi shaxslarning (jumladan, bolalarning) uyushmaganligi va uyushgan jamoaga mansubligiga qarab, kasallanish darajasida tafovut kuzatilishi havo-tomchi mexanizm bilan yuquvchi kasalliklar epidemiologiyasiga xos qonuniyatlardan biridir. Boshqa barcha holatlar aynan bir xil bo'lsa, havo-tomchi mexanizm orqali yuquvchi infeksiyalarda, uyushgan jamoa a'zolarida uyushmaganlarga qaraganda kasallanish darajasi albatta yuqori va bu holat odamlarning jamoalashuviga mos ravishda yuqish mexanizmining faollashuvi bilan izohlanadi. Xususan, havo-tomchi yuqish mexanizmining faollashuvi, kishilarning bino ichkarisida bo'lish va o'zaro muloqotining davomiyligi, binodagi kishilar soni, xonaning har bir shaxsga to'g'ri keluvchi sathi va hajmi, kishilar o'rtasidagi masofa, ventilyatsiya tabiati kabi ko'plab omillar bilan belgilanadi.

Xulosalar: Samarqand viloyatida 2020 yilda COVID-19 epidemik jarayoni jadalligining ikkita to'lqini kuzatildi. Kasallanishning ikkinchi to'lqini birinchi to'lqinga nisbatan yuqoriroq jadallikda va davomliroq kechgan. COVID-19 epidemik jarayoni jadalligining to'lqinsimon kechishi infeksiyaning yuqish sharoitlari mavjudligi va qay darajadaligi bilan belgilanadi, ya'ni qat'iy karantin-cheklovlar natijasida kasallanish muayyan darajada pasaygan, mazkur tadbirlar yumshatilgach esa ikkinchi to'lqin ko'rinishida namoyon bo'lgan. Epidemik jarayonning bunday ko'rinishda namoyon bo'lishi havo-tomchi mexanizm bilan yuquvchi "ekzotik" kasalliklar, jumladan COVID-19 uchun tabiiy holdir. COVID-19 bilan kasallanishning birinchi to'lqiniga nisbatan ikkinchi to'lqinining yuqori jadallikda va ikki martadan ko'proq uzoq muddat davom etishi, chetdan kasallik kirib kelgach vaqt o'tgani sayin aholi o'rtasida infeksiya manbalari soni oshishi va nozoareal kengayishi bilan izohlanadi.

COVID-19 epidemik jarayoni ko'rinishlarining tahlili, kasallanishning yuqori ko'rsatkichlari iyul-sentabr oylarida ("xavfli vaqt"), shaharlar va shaharlarga yondosh hududlarda ("xavfli hudud") hamda erkak jinsiga mansub shaxslarda, aholining 15-49 yosh guruhlarida, uyushgan jamoalar vakillarida ("xavfli guruhlar") qayd etilganligini ko'rsatdi. Xususan, uyushgan jamoalar vakillari orasida tibbiyot xodimlarining, davlat xizmatchilarining, maktab-litsey o'qituvchilarining hamda kollejlar va oliy o'quv yurtlari pedagoglarining kasallanishi aholining o'rtacha kasallanishiga qaraganda ishonarli darajada yuqoriroq.

ADABIYOTLAR

1. Bakirov Asadullo Abdiqodirovich. (2024). Teri leyshmaniozining epidemiologik xususiyatlari va uning oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish. TADQIQOTLAR.UZ, 48(1),18-22.
2. Berdiyarova Shokhida Shukurullayevna, Bakirov Asadullo Abdiqodirovich(2024) respiratory organs clinical laboratory diagnostics literature review Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing 2 (10), 154-161
3. Bakirov Asadullo Abdiqodirovich (2024) gimenolepidozning epidemiologik xususiyatlari va uning profilaktik chora-tadbirlarini takomillashtirish Journal of new century innovations 64 (2), 107-110
4. Nuriddinovich, K. N., Mirkomolovich, M. S., & Otkirovna, F. K. (2024). Preventive Measures to Prevent HIV Infection in Pregnant Women. *Amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali| journal of applied and fundamental research*, *3*(5), 122-125.
5. Nuriddinovich, K. N. (2024). Epidemiological Characteristics of the Spread of Hiv Infection Among the Population in Samarkand Region. *Scientific journal of applied and medical sciences*, *3*(5), 559-560.
6. Nuriddinovich, K. N. (2024). Epidemiological Analysis of Virus Hepatitis a in Samarkand Region. *Amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali| journal of applied and fundamental research*, *3*(5), 116-118.
7. Qobilov, N., Qarshiboev, J., & Xudoyorova, M. (2024). Virusli gepatit a kasalligining tarqalganligi va uning epidemiologik xususiyatlari. *Ilm-fan va ta'lim*, *2*(2 (17)).
8. Qobilov, N., Qarshiboev, J., & Xudoyorova, M. (2024). SAMARQAND viloyatida PARAZITAR KASALLIKLARNING tarqalishi VA SABABLARINI O'rganish. *Ilm-fan va ta'lim*, *2*(2 (17))